

**TA'LIM PSIXOLOGIYASI VA UNING MOHIYATI****Xalbayeva Gulnoza Arshidinovna****KDPI Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası v/b dotsenti, PhD****Haqberdiyeva Sabina****Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti****yo'nalishi 1-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20095361>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim psixologiyasi fanining mazmun-mohiyati, asosiy vazifalari hamda inson kamolotidagi o'rni keng yoritilgan. Ta'lim psixologiyasi o'quvchi shaxsining rivojlanishi, bilimlarni o'zlashtirish jarayoni, tafakkur, xotira, diqqat, motivatsiya va qobiliyatlarning shakllanish qonuniyatlarini o'rganadigan muhim fan sohasi hisoblanadi. Maqolada pedagog va o'quvchi o'rtasidagi psixologik munosabatlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri, zamonaviy ta'lim jarayonida psixologik yondashuvlarning ahamiyati ham batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda psixologiyaning o'rni haqida fikr yuritiladi. Ta'lim psixologiyasi nafaqat bilim berish jarayonini takomillashtirish, balki barkamol, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va psixologik yondashuvlarning o'quvchilarning intellektual hamda ma'naviy rivojlanishiga ko'rsatadigan ta'siri ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim psixologiyasi, pedagogik faoliyat, motivatsiya, tafakkur, diqqat, xotira, o'quv faoliyati, psixologik yondashuv, shaxs rivojlanishi, tarbiya, pedagog, o'quvchi, innovatsion metodlar, qobiliyat, ta'lim jarayoni, psixologik muhit, bilish jarayoni.

**Аннотация:** В данной статье подробно раскрываются сущность, содержание и значение психологии образования в современном учебно-воспитательном процессе. Психология образования изучает закономерности развития личности учащегося, процессы усвоения знаний, формирования мышления, памяти, внимания, мотивации и способностей. В статье анализируется влияние психологических отношений между педагогом и учеником на эффективность обучения, а также значение психологических подходов в современной системе образования. Особое внимание уделяется учёту возрастных и индивидуальных особенностей учащихся, определению их интересов и потребностей, а также роли психологии в организации эффективного образовательного процесса. Подчёркивается, что психология образования способствует не только повышению качества обучения, но и воспитанию гармонично развитой, самостоятельной и социально активной личности. Также в статье рассматривается влияние современных педагогических технологий, инновационных методов и психологических подходов на интеллектуальное и духовное развитие учащихся.

**Ключевые слова:** Психология образования, педагогическая деятельность, мотивация, мышление, внимание, память, учебная деятельность, психологический подход, развитие личности, воспитание, педагог, ученик, инновационные методы, способности, образовательный процесс, психологическая среда, познавательный процесс.

**Annotation:** This article widely discusses the essence, significance, and main objectives of educational psychology in the modern educational process. Educational psychology is an

important field that studies the development of students' personalities, the process of acquiring knowledge, and the formation of thinking, memory, attention, motivation, and abilities. The article analyzes the influence of psychological relationships between teachers and students on the effectiveness of education and highlights the importance of psychological approaches in modern teaching. Particular attention is given to considering students' age and individual characteristics, identifying their interests and needs, and organizing an effective learning environment. Educational psychology plays a significant role not only in improving the quality of education but also in raising intellectually mature, independent, and socially active individuals. Furthermore, the article scientifically explains the impact of modern pedagogical technologies, innovative methods, and psychological approaches on students' intellectual and moral development.

**Keywords:** Educational psychology, pedagogical activity, motivation, thinking, attention, memory, learning activity, psychological approach, personality development, education, teacher, student, innovative methods, abilities, educational process, psychological environment, cognitive process.

**Kirish:** Bugungi kunda ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Har qanday davlatning rivojlanishi, avvalo, bilimli, tafakkuri keng, ma'naviy barkamol va zamonaviy dunyoqarashga ega yosh avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish bugungi zamonning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ana shunday muhim vazifalarni amalga oshirishda ta'lim psixologiyasi alohida o'rin tutadi.

Ta'lim psixologiyasi — pedagogika va psixologiya fanlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan ilmiy yo'nalish bo'lib, u insonning o'qish, o'rganish, bilimlarni o'zlashtirish hamda shaxs sifatida shakllanish jarayonlarini tadqiq etadi. Ushbu fan o'quvchilarning yosh, individual va psixologik xususiyatlarini o'rganish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Chunki har bir o'quvchining qobiliyati, dunyoqarashi, fikrlashi va bilimni qabul qilish darajasi turlicha bo'ladi. Shu bois o'qituvchi ta'lim jarayonida psixologik yondashuvlardan foydalanishi, o'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olishi zarur.

Zamonaviy ta'lim tizimida faqatgina nazariy bilim berish yetarli emas. Bugungi o'quvchi mustaqil fikrlay oladigan, muammolarga yechim topa biladigan, ijtimoiy faol va ma'naviy yetuk shaxs sifatida kamol topishi kerak. Bunday natijaga erishishda esa ta'lim psixologiyasining ahamiyati nihoyatda katta. Mazkur fan o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularda bilim olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish, diqqat va xotirani rivojlantirish, ijobiy psixologik muhit yaratish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Shuningdek, ta'lim psixologiyasi pedagog faoliyatini ham takomillashtirishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilar bilan to'g'ri muloqot qilish, ularning ruhiy holatini tushunish, individual yondashuv asosida ta'lim berish orqali dars samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishda psixologik bilimlarning o'rni beqiyosdir. Chunki zamonaviy ta'lim metodlari o'quvchini dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishni talab qiladi. Yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviyat va mustaqil tafakkurni shakllantirish bugungi kun ta'limining asosiy maqsadidir. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim psixologiyasi nafaqat pedagogik faoliyatning nazariy asosi, balki inson shaxsining rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim ilmiy-amaliy soha sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada ta'lim psixologiyasining mohiyati, vazifalari, ta'lim jarayonidagi o'rni hamda shaxs kamolotiga ta'siri haqida batafsil fikr yuritiladi.

**Asosiy qism:** O'quv faoliyatining tuzilishi- O'quv faoliyati - inson yangi bilim, ko'nikma va malakalar egallaydigan, yoki mavjudlarini o'zgartiradigan, o'z qobiliyatlarini rivojlantiradigan, takomillashtiradigan jarayondir. O'quv faoliyati - shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yuzaga keladi. O'quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo'luvchi uzluksiz jarayondir. O'qish - bunda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan bola tomonidan amalga oshiriladigan o'quv harakatlari nazarda tutiladi. O'rganish - insoning o'quv faoliyati natijasida yangi psixologik sifat va xususiyatlarni o'zlashtirganligini bildiradi. Lug'aviy jihatdan bu tushuncha "o'rganmoq" tushunchasidan kelib chiqqan bo'lib, individning ta'lim va o'qish natijasida o'rganishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi. O'quv faoliyatining beshta elementi mavjud: O'quv motivlari, o'quv topshiriqlari, o'quv harakatlari, o'qituvchining nazorati, o'qituvchining baholashi. Ta'lim - o'quvchiga muayyan ko'lamda va darajada bilim, ko'nikma va malaka berishga, shuningdek shaxsning aqliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Ta'lim ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi (ta'lim beradi) va o'quvchi (ta'lim oladi)larning hamkorligidagi faoliyat natijasida amalga oshadi. Ta'lim o'rganishdan farqli ravishda rejali va ongli boshqariladigan tashkiliy jarayondir. O'rganish - esa stixiyali ravishda ruy beradi. O'qituvchining pedagogik jarayondagi asosiy vazifasi- boshqaruvchanlik- O'qituvchi shaxs va jamoaning shakllanishi, rivojlanishi, bilim olishi, tarbiyalanishi jarayonini boshqaradi. O'quvchining pedagogik jarayondagi asosiy vazifalari: izlashdir. Ta'lim psixologiyasi — o'quv jarayonida inson psixikasining rivojlanishi, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash jarayonidagi psixologik mexanizmlarni o'rganadi. Ta'limning muvaffaqiyati **birinchidan** o'qituvchi bilan o'quvchi jamoasi hamkorligidagi faoliyatning faol tarzda o'tishiga, **ikkinchidan** nimalardan saboq berishga, kim tomonidan tashkil qilishga, uni qanday usullar bilan amalga oshirishga va kimlarni o'qitishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ta'lim psixologiyasining predmeti- O'qitish va o'rganish jarayoni, Bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira, tafakkur), Motivatsiya va qiziqish, O'quv faoliyatining shakllanishi, O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi psixologik munosabatlar. Zamonaviy o'qitish usullarining psixologik asoslari: Tushuntiruv-ko'rsatmalilik metodi - bu metod reproduktiv metod bo'lib, unda faoliyat o'qituvchi tomonidan olib boriladi, bolalar ta'lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar. Reproaktiv - metodda bola faoliyat ko'rsatib, unda bolaga berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi. Muammoli ta'lim metodi - o'qituvchi tomonidan tashkil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqali bola bilim va malakalarini shakllantiradi. Ushbu metodni takomillashtirish yo'llaridan biri, ishchan o'yinlarni tashkil etishdan iboratdir. Qisman izlanish metodi - o'qituvchi nazorati ostida tashkil etiladigan metod bo'lib, u produktiv xarakterga ega, bunda bola ijod qiladi. Tadqiqot metodi - o'qituvchi yordamisiz tashkil etiladigan ta'lim metodi bo'lib, u bolaning mustaqil izlanishi, fikrlashi va bilimlar majmuini talab etadi. Ta'lim jarayoni tashkil etishning o'ziga xos metodlaridan biri ishchan o'yinlardir. Ishchan o'yinlar munosabatlar tizimini modellashtirish, faoliyat xarakteristikasini tashkil etishga yordam beradi. Aql haqida bir qancha olimlar va arboblarning turli xil fikrlarni keltirilgan. "Ulug' aql egalari o'z oldilariga maqsad quyadilar, qolgan odamlar o'z istaklari ortidan ergashadilar" (Vashington Irving). "Aql - bu yaxshi tashkil etilgan bilimlar tizimidir»

(K.D.Ushinskiy). Individual yondashuv — bu ta’lim jarayonida har bir o’quvchi yoki talabani uning psixologik, intellektual, ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o’qitish va tarbiyalash tamoyilidir. [07.05.2026 17:09] Habibullayev Asadullo Akmalovich 1- kurs: Ta’lim psixologiyasi psixologiya fanining muhim yo’nalishlaridan biri bo’lib, u insonning ta’lim olish jarayonidagi ruhiy holati, bilimlarni o’zlashtirish qonuniyatlari, o’quv faoliyati va shaxs rivojlanishini o’rganadi. Ushbu fan pedagogika bilan chambarchas bog’liq bo’lib, ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim psixologiyasining asosiy vazifasi o’quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali ta’lim muhitini yaratishdan iboratdir. Inson hayotida bilim olish jarayoni tug’ilgan kundan boshlanadi. Bola dastlab oilada tarbiya oladi, keyinchalik maktab va oliy ta’lim muassasalarida bilim va ko’nikmalarni egallaydi. Ushbu jarayon davomida insonning tafakkuri, xotirasi, diqqati, nutqi, qiziqishlari va dunyoqarashi shakllanib boradi. Ta’lim psixologiyasi aynan mana shu jarayonlarning qanday rivojlanishini o’rganadi hamda ularga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qiladi. Ta’lim jarayonida o’quvchilarning psixologik xususiyatlarini bilish juda muhimdir. Chunki har bir o’quvchi o’ziga xos xarakter, qobiliyat va fikrlash uslubiga ega bo’ladi. Ba’zi o’quvchilar ma’lumotni tez qabul qilsa, boshqalari ko’proq vaqt talab qiladi. Ayrim o’quvchilar amaliy mashg’ulotlar orqali yaxshi o’rgansa, boshqalari nazariy tushuntirishlarni afzal ko’radi. Shu sababli o’qituvchi barcha o’quvchilarga bir xil yondashmasligi, balki ularning individual xususiyatlarini inobatga olishi zarur. Bu esa ta’lim psixologiyasining eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Ta’lim psixologiyasida motivatsiya tushunchasi alohida o’rin egallaydi. Motivatsiya insonni bilim olishga undovchi ichki kuch va qiziqishdir. Agar o’quvchida bilim olishga qiziqish yuqori bo’lsa, uning o’qishga bo’lgan intilishi ham kuchli bo’ladi. Motivatsiyasi past o’quvchilarda esa darsga befarqlik, sustkashlik va bilimlarni o’zlashtirishda qiyinchilik kuzatiladi. Shu bois pedagog o’quvchilarda o’qishga bo’lgan qiziqishni uyg’ota olishi kerak. Rag’batlantirish, maqtov, interfaol metodlar va zamonaviy texnologiyalar bu borada muhim vosita hisoblanadi. Diqqat va xotira ham ta’lim psixologiyasining asosiy tushunchalaridan biridir. Diqqat insonning ma’lum bir faoliyatga ongli ravishda e’tibor qaratishidir. Dars jarayonida o’quvchining diqqati jamlanmagan bo’lsa, u mavzuni to’liq anglay olmaydi. Xotira esa olingan bilimlarni saqlash va qayta tiklash qobiliyatidir. O’qituvchi dars davomida turli psixologik usullardan foydalanib, o’quvchilarning diqqatini jalb etishi va xotirasini mustahkamlashi lozim. Masalan, ko’rgazmali vositalar, amaliy mashqlar, savol-javob usullari va muammoli vaziyatlardan foydalanish o’quvchilarning bilimni yaxshiroq o’zlashtirishiga yordam beradi. Ta’lim psixologiyasida yosh davrlari psixologiyasi ham katta ahamiyatga ega. Chunki har bir yosh bosqichida bolaning ruhiy rivojlanishi turlicha bo’ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko’proq o’yin orqali bilim olsa, maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy fikrlash asta-sekin rivojlanadi. O’smirlik davrida esa mustaqillikka intilish, hissiyotlarning kuchayishi va o’z “men”ini anglash jarayoni kuzatiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Pedagog va o’quvchi o’rtasidagi psixologik munosabatlar ham ta’lim samaradorligiga katta ta’sir ko’rsatadi. O’qituvchi o’quvchilarga nisbatan mehribon, adolatli va samimiy bo’lsa, o’quvchilar darsga faolroq qatnashadi va bilim olishga intiladi. Aksincha, qo’pollik, bosim yoki befarqlik mavjud bo’lgan muhitda o’quvchilarning o’qishga bo’lgan qiziqishi pasayadi. Shu bois ta’lim jarayonida sog’lom psixologik muhit yaratish juda muhimdir. Hozirgi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda. “Aqliy hujum”, “Klaster”,

“Bahs-munozara”, “Rol o‘ynash”, “Case study” kabi metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va faolligini rivojlantiradi. Bunday metodlar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladi, balki muloqot qilish, muammolarni hal etish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini ham egallaydi. Bu esa ta‘lim psixologiyasining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Ta‘lim psixologiyasi shaxsning ma‘naviy va axloqiy tarbiyasida ham muhim rol o‘ynaydi. Insonning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, yuksak ma‘naviyatli va komil inson bo‘lib yetishishi ta‘lim va tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Psixologik yondashuvlar orqali o‘quvchilarda mas‘uliyat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va ijobiy hayotiy qarashlarni shakllantirish mumkin. Shuningdek, ta‘lim psixologiyasi maxsus ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlashda ham muhim ahamiyatga ega. Bunday bolalar bilan ishlashda alohida psixologik yondashuv, sabr-toqat va individual metodlar talab etiladi. Inklyuziv ta‘lim tizimida barcha bolalarga teng imkoniyat yaratish ta‘lim psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Umuman olganda, ta‘lim psixologiyasi insonning bilim olish jarayonini chuqur o‘rganadigan va ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim fan hisoblanadi. U nafaqat o‘quvchilarning bilimni rivojlantiradi, balki ularning ruhiy, ma‘naviy va ijtimoiy kamolotiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli ta‘lim tizimida psixologik bilimlardan samarali foydalanish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sanaladi.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, ta‘lim psixologiyasi bugungi zamonaviy ta‘lim tizimining ajralmas va eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu fan insonning bilim olish jarayoni, tafakkurining rivojlanishi, ruhiy holati, qobiliyati, qiziqishi hamda shaxs sifatida shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish orqali ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta‘lim jarayonining muvaffaqiyati nafaqat o‘qituvchining bilim darajasiga, balki o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri tushunish va ularga individual yondashuvni qo‘llay olishiga ham bevosita bog‘liqdir. Shu sababli ta‘lim psixologiyasi pedagogik faoliyatning nazariy va amaliy asoslaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi globallashtirish va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta‘lim tizimiga ham katta talablar qo‘yilmoqda. Zamonaviy ta‘lim jarayoni faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tashabbuskor, ma‘naviy barkamol va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Ana shu maqsadlarni amalga oshirishda ta‘lim psixologiyasining o‘rni nihoyatda katta. Chunki ushbu fan o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini ochib berish, ularda bilim olishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish hamda ruhiy rivojlanishni ta‘minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ta‘lim psixologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega. Samimiy, ijobiy va sog‘lom psixologik muhit mavjud bo‘lgan ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi. Aksincha, qo‘rquv, bosim yoki befarqlik hukm surgan muhitda o‘quvchining faolligi pasayadi va uning qobiliyatlarini to‘liq namoyon etishi qiyinlashadi. Shu bois pedagog o‘quvchilarning ruhiy holatini doimo inobatga olishi, ularni rag‘batlantirishi, qo‘llab-quvvatlashi va individual xususiyatlariga mos ravishda ta‘lim berishi zarur. Shuningdek, ta‘lim psixologiyasi yosh avlodning ma‘naviy-axloqiy tarbiyasida ham katta rol o‘ynaydi. Insonning komil shaxs bo‘lib yetishishi nafaqat bilim, balki tarbiya, odob-axloq, irodaviy sifatlar va ijtimoiy munosabatlarga ham bog‘liqdir. Psixologik yondashuvlar orqali o‘quvchilarda mas‘uliyat, intizom, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ijobiy fazilatlarini shakllantirish mumkin. Bu esa jamiyatning kelajak taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Maqola davomida ta‘lim

psixologiyasining mohiyati, vazifalari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida batafsil ma'lumot berildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim psixologiyasi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda hamda ularning intellektual va ma'naviy rivojlanishini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishda psixologik bilimlarning o'rni yanada ortib bormoqda. Kelajakda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda ta'lim psixologiyasining ilmiy yutuqlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki inson omili har qanday taraqqiyotning asosiy kuchi hisoblanadi. Insonning bilimli, ma'naviyatli va ruhiy jihatdan sog'lom bo'lib voyaga yetishi esa, avvalo, to'g'ri tashkil etilgan ta'lim va psixologik yondashuvlarga bog'liqdir. Shu sababli ta'lim psixologiyasini chuqur o'rganish va uni amaliyotda keng qo'llash zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. G'oziyev.E.G. Pedagogik psixologiya. Toshkent. 2006.
2. G'oziyev.E.G. Ontogenez psixologiya. Toshkent. "Noshir" nashriyoti 2010.
3. Sh.A.Do'stmuhammedova., Nishonova Z.T. va bosh. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Toshkent. "Fan va texnologiyalar" – 2013.
4. O'.Tolipov., M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asosolari. – T.: 2006